

TALABALARDA MUVAFFAQIYATGA INTILISH VA EMOTSIONAL INTELEKTNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda muvaffaqiyatga intilish va emotsional intellekt darajasi o'rtasida o'zaro bog'liqlik psixologik jihatdan tahlil qilingan. Emotsional o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy munosabatlar va empatiya kabi ko'nikmalar muvaffaqiyatga erishishdagi muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotda talabalarning ichki motivatsiyasi, o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, ijtimoiy kompetensiya hamda stressga bardoshlilik kabi omillarning o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatga ta'siri o'rganildi. Maqola natijalari emotsional intellekt yuqori bo'lgan talabalarda muvaffaqiyatga intilish ehtiyoji kuchliroq shakllanishi, ularda o'zini anglash, maqsad qo'yish va qaror qabul qilish jarayonlari samaraliroq kechishini ko'rsatadi. Tadqiqot talabalarning shaxsiy rivojlanishi, motivatsion tizimini mustahkamlash va akademik samaradorligini oshirishda emotsional intellektning muhim omil ekanligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Talaba faoliyati, muvaffaqiyatga intilish, emotsional intellekt, motivatsiya, o'zini boshqarish, irodaviy sifatlar, akademik muvaffaqiyat, emotsional barqarorlik, shaxsiy rivojlanish, psixologik omillar.

Аннотация: В данной статье психологически проанализирована взаимосвязь между стремлением к успеху и уровнем эмоционального интеллекта у студентов. Такие навыки, как эмоциональное самосознание, самоконтроль, социальные отношения и эмпатия, указаны как важные факторы достижения успеха. Исследование охватывает влияние внутренних мотивов, осознания и управления эмоциями, социальной компетентности и стрессоустойчивости на академическую успешность. Результаты показывают, что у студентов с высоким уровнем эмоционального интеллекта сильнее выражена потребность в достижениях, эффективнее формируются навыки самопонимания, целеполагания и принятия решений. Исследование подчёркивает значимость эмоционального интеллекта как ключевого фактора личностного развития, укрепления мотивационной системы и повышения учебной эффективности студентов.

Ключевые слова: Стремление к успеху, эмоциональный интеллект, учебная мотивация, саморегуляция, волевые качества, академическая успешность, эмоциональная устойчивость, личностное развитие, психологические факторы.

THE CORRELATION BETWEEN THE DESIRE FOR SUCCESS AND EMOTIONAL INTELLIGENCE IN STUDENTS

Abstract: This article psychologically analyzes the correlation between students' drive for success and their level of emotional intelligence. Skills such as emotional self-awareness, self-management, social relationships, and empathy are highlighted as crucial factors in achieving success. The study examines how internal motivation, emotional awareness and regulation, social competence, and stress resilience influence academic success. The findings indicate that students with higher levels of emotional intelligence demonstrate stronger achievement motivation, better self-understanding, clearer goal-setting, and more effective decision-making processes. The research highlights the crucial role of emotional intelligence as a key factor in students' personal development, motivational enhancement, and overall academic performance.

Keywords: Achievement motivation, emotional intelligence, student performance, self-regulation, academic success, emotional stability, personal development, psychological factors.

Mamlakatimizda yoshlarning intellektual, emotsional va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu borada Prezidentimizning 2022- yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida yoshlarni har tomonlama yetuk, maqsadga yo'naltirilgan va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur strategik yo'nalishlarda ta'lim muassalarida talabalar shaxsining emotsional intellektini shakllantirish va ularning muvaffaqiyatga intilishini qo'llab- quvvatlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu sababdan talabalarda muvaffaqiyatga intilish va emotsional intelektning o'zaro bog'liqligini tadqiq etish zamon talabi bo'lib, ushbu maqolaning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshiradi.

Muvaffaqiyatga intilish insonni faollikka, maqsad sari harakatga undovchi ichki motivatsion tizimdir. Ta'lim jarayonida talabalarda bu sifat talabalarning o'z oldiga maqsad qo'yish, unga erishish yo'lida qat'iyat bilan harakat qilishda namoyon bo'ladi. Emotsional intellekt esa shaxsning hissiy va kognitiv sohalarini birlashtiruvchi murakkab tizimdir. O'quv faoliyati davomida emotsional intellekt muhim regulyator vazifasini bajaradi, chunki u his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, stressga chidamlilik, ijtimoiy moslashuvni ta'minlaydi. Aynan shu ikki psixologik omilning o'zaro uyg'unligi talabalarda o'qish, muloqot qilish va o'zini namoyon etish jarayonida muvaffaqiyat qozonishida yordam beradi.

Muvaffaqiyatga intilish atamasi ilk bor 1950-yillarda amerikalik psixolog David McClelland tomonidan muommalga kiritilgan, u inson faoliyatini belgilovchi asosiy motivatsion omillarni aniqlashga qaratilgan. U o'zining 1961-yilda yozilgan "The Achieving Society" nomli asarida "Muvaffaqiyatga intilish" tushunchasini chuqur tahlil qilgan. McClellandning fikriga ko'ra, inson xulq atvorini harakatga keltiruvchi uchta asosiy ehtiyoj mavjud: muvaffaqiyatga intilish, hokimiyatga intilish va aloqadorlik ehtiyoji. Ularning har biri shaxsning hayotdagi yo'nalishi va muvaffaqiyat strategiyasini belgilaydi.

Uning nazariyasida muvaffaqiyatga intiluvchi shaxs quyidagicha bo'ladi;

1. O'z faoliyatida aniq maqsad qo'yadi;
2. Ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi;
3. Xatarni oqilona baholaydi;
4. Muvaffaqiyatdan ichki qoniqish oladi;

McClelland muvaffaqiyatga intilish ehtiyoji ijtimoiy muhit, tarbiya va ta'lim jarayonida shakllanadi. Amerikalik psixolog J.W. Atkinson McClellandning g'oyalarini rivojlantirgan holda, muvaffaqiyatga intilish modeli asosida izohlab bergan. U 1957- yili ishlab chiqqan "Achievement Motivation Theory" da insonning muvaffaqiyatga intilish darajasi shaxshining ichki motivatsiyasi, yutuqqa ichonchi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquvi omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanishini ta'kidlagan. Atkinsonning yondashuvi insonning motivatsion xatti harakatlarini psixologik va kognitiv jihatdan tahlil qilishga yordam beradi. Uning modeli hozirgacha o'quv motivatsiyasi, emotsional intellekt va shaxsiy o'sish jarayonlarini tadqiq etishda keng qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda muvaffaqiyatga intilish nazariyasi bo'yicha turli zammonaviy yondashuvlar mavjud bo'lib, bu yondashuvlarda muvaffaqiyatga intilish insonning emotsional intellekti bilan uzviy bog'liq holda qaralmoqda. Tadqiqotchilar G.Goleman, P.Salovey va J.Mayerlarning ishlari shuni shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatga erishish faqat tashqi motivlar emas, balki insonning o'z tuyg'ularini anglash va boshqarish va ijtimoiy vaziyatlarda moslashish qobilyariga ham bog'liqdir. Shu boisdan, zamonaviy nazariy yondashuv muvaffaqiyatga intilishni ko'p komponentli tizimsifatida ya'ni kognitiv, emotsional va ijtimoiy jihatlarining o'zaro uyg'unligi sifatida izohlaydi. Muvaffaqiyatga intilish muommasi xorijiy psixologiyada keng o'rganilgan bo'lsada, O'zbekiston psixologiya ilmida ham bu yo'nalish asta-sekin rivojlanmoqda. Xususan, R.G'.Gaynutdinov, N.G'.Davronov, Sh.T.Alimov, O.T.Yo'ldoshev, M.M.To'xliyeva kabi olimlar shaxs motivatsiyasi, faoliyatga yo'nalganlik va muvaffaqiyatga intilish masalalarini milliy madaniyat kontekstida o'rgananlar.

Emotsional intellekt (EI) tushunchasi zamonaviy psixologiyada insonning shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Mazkur atama dastlab 1990-yilda P.Salovey va J.Mayer tomonidan muommalaga kiritilgan bo'lib, ular EI ni "shaxsning o'z hissiyotlarini anglash, tushunish, boshqarish hamda boshqalar hissiyotlarini idrok etish va ularga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati" sifatida ta'riflashgan. Ular emotsional intellektni aqliy intellektdan alohida ajratishdi, EI shunchaki hissiyotlarga berilish emas balki emotsional ma'lumotni idrok etish, tahlil qilish, undan samarali foydalanish jarayonidir. 1995-yili yana bir Amerikalik psixolog Daniel Goleman esa bu tushunchani yanada kengaytirib, emotsional intellektni beshta asosiy komponent – o'zini anglash, o'zini boshqarish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar orqali izohlagan.

Emotsional intellekt hozirgi davrda ta'lim, boshqaruv, tibbiyot va psixoterapiya sohalarida keng tadbiiq etilmoqda. O'zbekistonlik psixolog olimlar (N.G' Davronov, M.M. To'xliyeva, O.T.Yo'ldoshev, D.A. Karimova va boshqalar) o'z tadqiqotlarida EI ni shaxsning psixologik barqarorlik, ijtimoiy moslashuv va ma'naviy yetuklik bilan uzviy bog'liq holda talqin qilganlar. Masalan, M.M.To'xliyeva esa EI darajasi yuqori bo'lgan talabalar o'z his tuyg'ularini ongli ravishda boshqarish orqali o'qishdagi muvaffaqiyatlarni oshirishni ta'kidlaydi.

Muvaffaqiyatga intilish (achievement motivation) — bu shaxsning o'zining maqsad va vazifalariga erishish, qiyinchiliklarni yengish va shaxsiy salohiyatini to'liq namoyon qilishga bo'lgan ichki harakati sifatida qaraladi (McClelland, 1961). Talabalarda muvaffaqiyatga intilish darajasi ularning akademik natijalari, shaxsiy o'sish va professional rivojlanishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori muvaffaqiyatga intilishga ega talabalar o'z maqsadlariga erishishda ko'proq qat'iyat, mustaqillik va mas'uliyat namoyon etadilar.

Muvaffaqiyatga intilishning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

1. Ichki motivatsiya – talabaning tashqi rag'batlardan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqish va qoniqish orqali faoliyat ko'rsatishi.
2. Maqsadga yo'naltirilganlik – aniq va o'lchab bo'ladigan maqsadlarga erishishga intilish.
3. Qiyinchiliklarni yengish qobiliyati – stress va qiyinchiliklarga qarshi chidamlilik, muvaffaqiyatsizlikdan saboq olish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlarida ta'kidlanganidek, zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifasi shaxsning ichki intilishlarini rivojlantirish, bilimga intilish va ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iboratdir (Sh. Mirziyoyev, 2023). Bu nuqtai nazardan, muvaffaqiyatga intilish talabaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida qabul qilinadi.

Emotsional intellekt (EI) tushunchasi D. Goleman (1995) tomonidan keng joriy etilgan bo'lib, u shaxsning o'z va boshqalar his-tuyg'ularini aniqlash, tushunish, boshqarish va ijtimoiy muloqotda samarali qo'llash qobiliyatini anglatadi. Talabalar uchun emotsional intellekt quyidagi asosiy komponentlarga ega:

1. O'zini anglash – o'z his-tuyg'ularini to'g'ri idrok etish va tushunish.
2. O'zini boshqarish – stress, xavotir va boshqa salbiy hissiyotlarni samarali nazorat qilish.
3. Ijtimoiy anglash – boshqalar his-tuyg'ularini tushunish, empatiya ko'rsatish.
4. Munozara va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari – munozara, hamkorlik va jamoa ichida samarali ishlash.
5. Motivatsiya – ichki intilish orqali o'z maqsadlarini amalga oshirishga intilish.

Emotsional intellekt talabalar akademik muvaffaqiyatini oshirish, stress va xavotirni kamaytirish, shuningdek, ijtimoiy muloqotda samarali bo'lishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, EI talabaning psixologik barqarorligi va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda muvaffaqiyatga intilish va emotsional intellekt o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Ya'ni, yuqori emotsional intellektga ega talabalar:

- Maqsadlarini aniq belgilaydi va ularga erishishda qat'iyat ko'rsatadi;
- Stress va qiyinchiliklarni samarali yengadi;

- O'z his-tuyg'ularini va boshqalar his-tuyg'ularini boshqarish orqali ijtimoiy muloqotni mustahkamlaydi;
- Ichki motivatsiya orqali doimiy o'sishga intiladi.

Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellektning ayrim komponentlari, xususan o'zini boshqarish va motivatsiya, muvaffaqiyatga intilishning kuchayishida muhim rol o'ynaydi (Petrides, 2010). Masalan, talabalar stressni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lsa, ular qiyin akademik vazifalardan qo'rqmay, maqsad sari intilishadi. Shu bilan birga, empatiya va ijtimoiy anglash talabani jamoaviy ishlarda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi, bu esa o'z navbatida ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan so'nggi tadqiqotlar ham shuni ko'rsatdiki, emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lgan talabalarda akademik muvaffaqiyatga intilish ancha yuqori. Bu holat emotsional intellekt va muvaffaqiyatga intilish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni tasdiqlaydi va ta'lim jarayonida EI ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini yana bir bor ko'rsatadi.

Talabalarda muvaffaqiyatga intilish va emotsional intellektni o'rganishda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi:

1. Psixodiagnostik testlar – muvaffaqiyatga intilish darajasini aniqlash uchun McClelland testi, emotsional intellektni baholash uchun Bar-On yoki Schutte EI testlari.

2. So'rovnomalar va intervyular – talabalarning ichki motivatsiyasi, qiyinchiliklarga munosabati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini aniqlash.

3. Korrelyatsion tahlil – muvaffaqiyatga intilish va emotsional intellekt komponentlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Tavsiya qilinadigan pedagogik chora-tadbirlar:

Ta'lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirish bo'yicha maxsus treninglar va mashg'ulotlar o'tkazish;

Talabalarga stress va qiyinchiliklarni boshqarish ko'nikmalarini o'rgatish;

Ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi maqsadlar va rag'batlantirish tizimlarini joriy etish.

Shu tarzda, muvaffaqiyatga intilish va emotsional intellektning o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilish nafaqat talabalar shaxsiy rivojlanishi, balki butun ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov, B. (2019). Talabalarda shaxsiy motivatsiya va akademik muvaffaqiyat. Toshkent: Fan va ta'lim nashriyoti.
2. Yo'ldoshev, S. (2021). Emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashri.
3. Karimova, L. (2020). Oliy ta'lim muassasalarida talabalar motivatsiyasini oshirish metodlari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 3(12), 45–52.
4. Rahmonova, N. (2022). Talabalarda emotsional intellekt va muvaffaqiyatga intilish o'rtasidagi bog'liqlik. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashri.
5. G'aniev, D. (2018). Ta'lim jarayonida psixologik barqarorlikni shakllantirish usullari. Toshkent: O'zbekiston Psixologik Jamiyati nashriyoti.
6. Abduvaliyev, T. (2020). Talabalarda ichki motivatsiya va muvaffaqiyatga intilishni rivojlantirish. Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim nashriyoti.